

## **BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KOMUNIKATIV VA KOMUNIKABELLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

*Yuldasheva Malohat Erkinovna*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.051>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda o'qituvchi murabbiylarning kommunikativ va kommunikabellik layoqati va qobiliyati borasidagi mushoxadalar bayon etilgan. Maqolada Kommunikativ va kommunikabellik malakalarini shakllantirishga oid mualliflik tavsiyalari, hamda psixolog olimlarning mavzu doirasidagi ilmiy nazariyalari aks etgan.*

*Kalit so'zlar: kommunikativ qobiliyat, kommunikabellik, kommunikabellik komponentlari, kommunikabellik mexanizmlari.*

## **ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ И КОММУНИКАТИВНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ**

*Юлдашева Малохат Эркиновна,*

*Старший преподаватель Коканского государственного педагогического института,*

*кандидат педагогических наук*

*Аннотация. В данной статье описаны наблюдения над коммуникативными и коммуникативными способностями и способностями учителей-тренеров. В статье отражены рекомендации автора по формированию коммуникативных и коммуникативных навыков, а также научные теории психологов в рамках рассматриваемой темы.*

*Ключевые слова: коммуникативные способности, коммуникабельность, компоненты коммуникабельности, механизмы коммуникабельности.*

## **PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE AND COMMUNICATIVE SKILLS IN FUTURE EDUCATORS**

*Yuldasheva Malohat Erkinovna,*

*Senior teacher of Kokan State Pedagogical Institute, Ph.D*

*Abstract. In this article, observations on the communicative and communicative ability and ability of teacher trainers are described. The article reflects the author's recommendations on the formation of communicative and communicative skills, as well as the scientific theories of psychologists within the scope of the topic.*

*Key words: communicative ability, sociability, sociability components, sociability mechanisms.*

*Kirish. Har qanday rivojlangan jamiyat, millat, davlatning mustaxkam poydevorini barpo etish ortida shu yurtning zaxmatkash ustozlari, ya'ni yoshlarning ongu-qalbini, vijdonini, vatanparvarligini, kasbiy mahoratini bunyodga keltirgan millat qaxramonlari ustoz va murabbiy mehnati mavjud. Pedagog-xodimlarning jamiyatda tutgan o'rni har qachongidan ham, mustaxkamlanib borayotgan bir vaqtda, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo qiyofasi yoshlar tarbiyasiga kuchli ta'sir etar ekan, mamlakatimiz taqdiri va rivoji xar qachongidan ham muallimlarga muxtojdir.*

*Adabiyotlar tahlili va metod. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ustoz va murabbiylarning har tomonlama serqirra ijodkor va mahoratli kasb egasi bo'lishligi haqida mulohaza bildirib shunday degan edilar: "Bugungi kun o'qituvchisi universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni, o'z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak. Eng muhimi, o'qituvchi chinakam vatanparvar inson bo'lishi zarur. Qalbida o'z kasbiga, Vataniga mehr va sadoqat kuchli bo'lgan o'qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi".*

*Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki o'qituvchilarning jamiyat taraqqiyotidagi roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Aynan o'qituvchining kommunikativ qobiliyati va malakalari ta'lim va tarbiya*


jarayonidagi samaradorlikni taminlashning asosiy omillaridan biri ekan, bu xususiyat bevosita ta'lim tizimidagi dolzarb muammolardan biriga aylanadi.

Hozirgi kun ta'lim oluvchisining psixikasi murakkab tuzilmaga ega bo'lib borayotgani pedagoglarning kasbiy mashaqqatini yanada og'irlashtirmoqda. Ta'lim oluvchi shaxsining ko'ngliga yo'l topa olish, ta'limga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish, pedagogik ta'sir ko'rsatish muammosi kundan-kunga ko'zga tashlanmoqda. Bu muammoning yechimini qidirayotgan dunyo olimlari asosiy ta'sir ko'rsatish mexanizimi sifatida o'qituvchining komunikabellik xususiyatini eti'rof etishmoqdalar.

N.P. Anikeyeva fikricha, boshqa odamlar bilan muloqotda har bir shaxs muayyan ijtimoiy rolga egallaydi. Rollar shaxsning tabiatini to'laroq ochib berishi yoki uni niqoblashi mumkin. Lekin pozitsiya — rollarni tanlash albatta insonning o'z mohiyatiga, uning kuchiga, zaifligiga, salohiyat darajasiga, o'z-o'zini tanqid qila olishiga, xulqatvorining puxtaligiga, o'zini chetdan ko'ra bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Psixologik nuqtayi nazardan munosabatlar tushunchasi aloqa va munosabatlar o'rnatish, muloqotga moyillik layoqati kabi qobiliyat sifatida izohlanadi. Komunikabellik xususiyatiga ega bo'lgan shaxs muloqotda yoqimli va atrofdagilar bilan oson munosabat o'rnatish psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Muhokama va natijalar. Shu o'rinda o'qituvchining muloqot jarayonida yetakchilik qila olishi, suxbatdoshiga ta'sir ko'rsata olishi, suxbat jarayonida yoqimli bo'la olishi, suxbatdoshini holatini oldindan seza olishi, holatga ko'ra suxbatni mazmunan o'zgartira olish komunikabellikning komponentlari sanaladi.



Psixologik adabiyotlarda kommunikativ va komunikabellik qobiliyatlarining bir qancha turlari ajratib ko'rsatiladi: 1) insonning insonni tushuna olishi (insonni shaxs sifatida, uning alohida jihatlarini, motiv va ehtiyojlarini baholash, tashqi xulq-atvorini ichki olami bilan bog'liqlikda ko'rib chiqish, yuz, qo'l, gavda harakatlarini "o'qish" ko'nikmasi) 2) insonni o'z-o'zini anglay olishi (o'z bilimi, qobiliyati, o'z xarakteri va boshqa qirralarini baholash, inson boshqalar tomonidan qay tarzda qabul qilinishi va atrofdagilar ko'zi bilan baholash); 3) muloqot vaziyatini to'g'ri baholay olish ko'nikmasi (mavjud holatni kuzatish, uning namoyon bo'lish belgilari haqida ko'proq axborotlarni ajratib olish, ularga e'tiborni qaratish, yuzaga kelayotgan vaziyatning ijtimoiy va psixologik mohiyatini to'g'ri idrok etish va baholash).

So'z mahoratli o'qituvchining egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka ko'nikmalari ustida ekan, o'qituvchining kommunikabellik ko'nikmalari haqida to'xtalishimiz va mohiyati haqida fikr yuritishimiz maqsadga muvofiq va muhim ahamiyatga egadir.

Mahoratli o'qituvchining kommunikativ va komunikabellik ko'nikmasi — bu o'qituvchilik kasbiga ilk tayyorgarlik ko'ra boshlagan davrdan boshlanishi lozim. O'qituvchining kasbiy yutuqlari aynan uning ushbu qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'langandir. O'qituvchining komunikabellik malakalarini quyidagi mexanizmlarni o'zlashtirganligidan bilish mumkin:

1. Identifikatsiya-inson o'zini xayolan suxbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning fikrlari va tasavvurlarini tushunishga intilishi.

2. Empatiya-inson o'zini xayolan suxbatdoshi o'rniga qo'yish orqali uning kechinmalari va hissiyotlarini tushunishga intilishi.

3. Refleksiya-inson suxbatdoshi tomonidan qanday idrok etilayotgani va tushunilayotganini anglashga

intilishi.

4. Stereotipizatsiya-inson suhbatdoshini tushunishga intilishi yo'lida muayyan shablonlardan foydalanishi.

O'qituvchidagi kommunikativ ko'nikmalari og'zaki va yozma nutq, imo - ishora orqali fikr ifoda etishni bilish va kishilarni ifoda etayotgan fikrini to'g'ri anglay olishdir.

Taniqli psixolog S.L. Rubinshteyn shunday deb yozgan edi: «Kundalik hayotda odamlar bilan muloqotga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga qarab mo'ljal olamiz. Negaki, biz ularning tashqi ma'lumotlari mohiyatini go'yo «o'qib», ya'ni «mag'zini chaqib» chiqamiz, shu yo'sinda matnning ichki psixologik jihati mavjud bo'lgan mazmunini aniqlaymiz. Bunday o'qish naridan beri tez yuz beradi, chunki atrofdagilar bilan muloqot jarayonida bizda muayyan darajada

ularning fe'l-atvoriga nisbatan avtomatik tarzda amal qiladigan psixologik ichki ma'no hosil bo'ladi.»

Yuzni o'qish san'ati – boshqa kasblar singari o'qituvchilikka ham xos bo'lgan sifatlardan biridir.

Yuzni o'qish, ya'ni biror shaxsning o'z fikrini namoyon (ya'ni og'zaki va yozma holatda) qilmaganda uning yuz tuzilishi, yuzidagi a'zolarining ba'zi bir harakatlaridan anglash, tushuna olishdir. Yuzni o'qish, avvalo psixologik jihatdan idrok, diqqat va kuzatuvchanlikka bog'liqdir. Insonlarning xursandligini uning yuzidagi ko'rinib turgan tetiklik, xushchaqchqlikdan anglashimiz yoki xafalikni esa yuzlarning mayus tortganligi, ko'zlarning toliqib ko'rinishdan bilishimiz mumkin.

O'zgalar holatini tushuna olish o'qituvchi uchun muhimdir. Sababi u qanday holat, sharoitda o'sgan o'quvchilarga dars berayotganligini bilish lozimdir. O'qituvchilarning yurish-turishi, o'tirishi, harakatidan ularning qay holatda yurganliklarini bilish mumkin.

O'zini namoyon qila olish – bu bir qiyin narsa orqali emas, balki bilim, malaka, ko'nikma, odob - axloq muomala, nutq, munosabat orqali o'zini namoyon qila olishdir.

Komunikabellik xususiyatiga ega bo'lgan o'qituvchi muloqotda yoqimli va atrofdagilar bilan oson munosabat o'rnatadi. O'qituvchining kommunikativ madaniyati nafaqat o'quvchilarga va atrofdagilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan balki ularning kommunikativ malakalarini ham shakllantiradi.

Kommunikativ malaka egasi bo'lgan o'qituvchi o'quvchiga yetkazilishi lozim bo'lgan axborot va ma'lumotlarni saralay olishi, axborot hajmini belgilay olishi, axborotni to'la-to'kis o'quvchiga yetkaza olishi lozim.

Kommunikativ malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilarning faoliyatida axborotni yetkazishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida o'quvchilarda ham mavzuni to'liq tushunmaslik, ham topshiriq mohiyatini aniq anglamaslik holatlari ro'y beradi. Natijada ta'lim tarbiya jarayonining muvaffaqiyati ta'minlanmaydi.

Kommunikativ va komunikabellik malakalar o'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir. So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda ham o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashish oldidan maxsus hozirlik ko'rishi lozim.

Pedagoglik kasbining eng zaruriy vazifalaridan biri uning kommunikativligi ya'ni dilkashligi hisoblanadi, uni rivojlantirishga bo'lajak o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalash sohasidagi ishida alohida e'tibor berish kerak.

Pedagogik kategoriya bo'lgan muomala kommunikativlikning asosidir. Bo'lajak pedagoglarning muomalasini tarbiyalash va rivojlantirish mumkin:

jamiyatning ijtimoiy madaniyatida ishtirok etish;

shaxsning insonparvarlik yo'nalishini belgilash;

ijodiy individuallikni rivojlantirish;

Talabalarda (bo'lajak pedagoglarda) muomalaga tayyorlash ularda quyidagi fazilatlarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi:

ijodiy tafakkurni-nostandartlikni, puxtalik va shu kabilarni;

nutqni erkin egallashni;

empatiyaga (kechinmaga, hamdardlikka), o'yinlarga, muomalada samarali qatnashishning zarur

sharti bo'lgan dilkashlik qobiliyatini;  
o'zaro fikr almashish malakalarini;  
ijtimoylashuv jarayonini.

Pedagogik tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, kommunikativlik bu nafaqat dilkashlik balki axborotni to'liq uzatish jarayonidir ham, shu nuqtai nazardan bo'lajak pedagoglarga quyidagi mashqni tavsiya etish maqsadga muvoviq;

pedagogik mavzuga yoki mutaxassislikga doir axborotni (matnni) tanlab olish va uni yaxshilab o'qib o'rganish;

o'rganilgan materialni yaqin kishilarga yoki hamkasblarga so'zlab berish;  
bayon qilingan ma'lumotni asl ma'lumotga qanchalik mosligini tekshirish;  
tekshirish asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va o'zlashtirilmagan ma'lumotni qayta o'zlashtirish;

shuni unutmaslik kerakki, bayon qilinayotgan axborot mazmunini yo'qotmasligi va tushunarli bayon qilinishi kerak;

Kommunikativlik qobiliyati shaxsning ijtimoylashuvini ijobilashtiribgina qolmay balki, kommunikativlikning o'zi ham ijtimoylashuv jarayonida shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladi. Shu sababli bo'lajak pedagog jamoada va jamoaviy tadbirlarda doimiy faol bo'lishi, o'quvchilarning, kasbdoshlarining, ota-onalarning, rahbariyatning psixik holatini o'rganish hamda ularning qalbiga singib keta olishi jozim.

Komunikabellik va kommunikativ malakaga ega bo'lishni istagan yosh oqituvchilarga quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvoviqdir.

Pedagogik tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki, kommunikativlik bu nafaqat dilkashlik balki axborotni to'liq uzatish jarayonidir ham, shu nuqtai nazardan bo'lajak pedagoglarga quyidagi mashqni tavsiya etish maqsadga muvoviq;

pedagogik mavzuga oid yoki mutaxassislikga doir axborotni (matnni) tanlab olish va uni yaxshilab o'qib o'rganish;

o'rganilgan materialni do'stingizga yoki hamkasbingizga so'zlab berish;  
bayon qilingan ma'lumotni asl ma'lumotga qanchalik mosligini tekshirish;  
tekshirish asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va o'zlashtirilmagan ma'lumotni qayta o'zlashtirish;

shuni unutmaslik kerakki, bayon qilinayotgan axborot mazmunini yo'qotmasligi va tushunarli bayon qilinishi kerak;

axborotni bayon qilishda mimik, pontomimik xarakatlardan maqsadli foydalanish;

Psixologik qonuniyatlar asosida suxbatdoshni o'rganish va komunikabellik malakasini oshirishga oid mualliflik tavsiyalari:

- 1) suxbatdoshingizni yaxshilab kuzating, uning aloxida xislat va xususiyatlariga e'tibor berish;
- 2) jamiyatdagi kasbi va xunarini nimadan iborat ekanini aniqlanish;
- 3) aloxida qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash;
- 4) tahminan qaysi yosh davri vakili ekanligiga e'tibor berish;
- 5) uning jinsiga oid odatarga urg'u berish;
- 6) yuqoridagi olingan ma'lumotlar asosida suxbat mavzusini tanlash.
- 7) suxbatga hamohang emotsiyalardan unumli va o'rinli foydalanish.

Yuqoridagi tavsiyalarga amal qilingan holda aloqa o'rnatish, shaxslararo munosabatlarda doimo muvaffaqiyat kaliti bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Kommunikativlik va komunikabellik qobiliyatlari shaxsning ijtimoylashuvini ijobilashtiribgina qolmay balki, kommunikativlikning o'zi ham ijtimoylashuv jarayonida shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladi. Shu sababli bo'lajak pedagog jamoada va jamoaviy tadbirlarda doimiy faol bo'lishi, o'quvchilarning, kasbdoshlarining, ota-onalarning, rahbariyatning psixik holatini o'rganishi hamda ularning qalbiga singib keta olishi jozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O.M. Nurmatova. "Umumiy pedagogika" (Pedagogik mahorat). "Ilm va fan". Toshkent. 2023-yil.
2. M.Maqsudova. "Muloqot psixologiyasi". "Turon-iqbol". Toshkent. 2006-yil.